

FARG'ONA VODIYSIDA ILK DEHQONCHILIK MARKAZLARINING VUJUDGA KELISHI

Xayitova Shaxnoza Muxammadjonovna
Namangan Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Arxeologiya yo'nalishi II- kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rta Osiyodagi ilk dehqonchilik manzilgohlari xususan Farg'ona vodiysidagi Miloddan avvalgi 2,3 ming yilliklarda dehqonchilik rivoji, Farg'ona hududidan topilgan Arxeologik topilmalar aholining asosiy mashg'ulotlari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ilk dehqonchilik manzilgohlari, Dalvarzin, Eylaton, Shurabashot, Chust madaniyati,*

Keywords: *Farming settlements, archaeological findings, Dalvarzin, Eylaton, Shurabashot, Chust culture*

Abstract: *In this article, the first farming settlements in Central Asia particularly in the Ferghana valley the development of agriculture in the 2nd and 3rd millennia BC archaeological findings found in the Ferghana region, information about the main occupations of the population are covered.*

O'rta Osiyoda qadimda ilk dehqonchilik madaniyati rivojlangan hududlardan biri Farg'ona vodiysi bo'lib, bu vodiylar bir nechta turli landshaftli yerlarni o'z ichiga olgan. Ularning har biridagi tabiiy geografik shart-sharoitlar ko'p tarmoqli xo'jalikning rivojlanishiga imkon bergan. Shuning uchun Farg'ona vodiysida qadimgi davrlardayoq o'troq aholining madaniy markazlari va ko'chmanchilarning mavsumiy manzillariga olib boruvchi yo'llar vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning 2-yarmida Farg'ona vodiysining tekislik va tog'oldi yerlarida o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan dehqonlar kelib o'rnashgan. Ularning markazi hozirgi Andijon viloyatidagi Dalvarzin shahar xarobalari o'rnida bo'lib, uning maydoni 25 ga, aholisi esa taxminan 2 ming kishini tashkil etgan. Shahar murakkab tuzilishga ega bo'lib, 3 qismdan iborat bo'lgan, ularning har biri mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shahar o'rtasida qo'rg'on joylashgan. Aholi asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Yaylov chorvadorligi ham rivojlana boshlagan. Metallarga ishlov berib, ulardan mahsulot ishlab chiqarish yuksak darajaga yetgan. Dalvarzin xarobalarida bronza quyish pechi va mehnat qurollarini quyish uchun xizmat qilgan qoliplar topilgan. Arxeologik materiallar Farg'ona jamiyatining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Viloyatda 3 ta ijtimoiy tabaqa bo'lganligini taxmin qilish mumkin: askarlar, rohiblar va dehqon chorvadorlar.

Miloddan avvalgi VIII asrda bronza davriga mansub barcha manzilgohlarda hayot to'xtab, xo'jalikning barcha sohalarida o'zgarishlar yuz beradi, kulolchilik charxida yasalgan idishlar paydo bo'ladi, temirdan yasalgan mahsulotlar ishlatila boshlaydi. Dafn etish udumlari o'zgaradi. Manzilgohlarning soni ko'payadi. Aholining zichligi oldingi davrdagi

singari asosan vodiyning sharqiy qismida ko'proq kuzatiladi. Yirik manzilgohlar Sharqiy Farg'onaning bir nechta yerlarida (Norin va Qoradaryo oralig'ida, O'zgan va O'sh vohasida) joylashgan. Ular Janubiy va Shimoliy Farg'onada (Xo'jand, Asht) bo'lgan. Bu davdagi eng yirik shahar xarobalari Eylatan bo'lib, u katta maydonni egallagan va ikki qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan.

Keyingi davrlarda (mil.avv. IV–I asrlar) shaharlar soni yana ham ko'payib, ular kattaroq maydonlarni egallagan. Katta (asosiy) shahar atroflarida kichikroq manzilgohlar joylashgan bo'lib, dehqonchilik vohasini tashkil etgan. Bu davrdagi eng katta shahar xarobalari Shurabashat bo'lib, u Yassi daryosining o'ng sohilida joylashgan va 70 ga maydonni egallaydi. Shahar mudofaa devori bilan o'ralgan, devorning burjlari bo'lgan. Xarobalarning sharqiy qismida qo'rg'on joylashgan va o'z mudofaa devorlariga ega bo'lgan. Shurabashat vohasidan tashqari vodiya yana bir nechta dehqonchilik vohalari mavjud bo'lib, ularning har birida o'nlab manzilgohlar (Qorasuv, Qoradaryo va b.) bo'lgan.

Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lib, donli ekinlardan tashqari yem-xashak ekinlari (beda va b.) ekilgan. Ekin maydonlariga suv chiqarib sug'orish usuli qo'llanilgan. Vodiya yaylovlarning maydoni qisqargan. Natijada chorvadorlar tog' yonbag'irlariga ko'cha boshlaganlar.

Dastlab u yerlarda mavsumiy manzilgohlar tashkil topgan. Keyinchalik chorvadorlarning bir qismi dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaganlar. Shunday qilib, tog'li hududlarda ham asta-sekin dehqonchilik va chorvadorlikdan iborat kompleks xo'jaliklar vujudga kelgan.

Farg'ona vodiysining tog' oldi hududlarga aholining ko'chish jarayoni mil.avv. I mingyillikning oxirida boshlanib, milodiy I – II asrlarda faollashgan. Aynan shu davrda tog' vodiylarida aholining zichligi oshgan. Farg'ona vodiysining tekislik yerlaridan ko'chib kelganlar asosan tog' daryolari (So'x, Isfara, Xo'ja-Baqirgan, Isfanaso'y va b.) ning vodiylariga kelib joylashganlar. Tog' oldi hududlarda manzilgohlar bilan bir vaqtda qo'rg'on shaklidagi qabristonlar paydo bo'ladi. Ular baland platolarda joylashgan bo'lib, 200 va undan ortiq qo'rg'onlardan iborat bo'lgan. Bu qabristonlarda yirik qo'rg'onlar o'rtada, ularning atrofida esa kichikroq hajmdagi qo'rg'onlar joylashgan. Qabristonda ibodat qilinadigan maxsus joy ham bo'lgan deb taxmin qilinadi.

Farg'ona vodiysi ziroatkor hududining geografik joylashuvi – tog'lar yonbag'rida istiqomat qiluvchi chorvador qabilalar qurshovida ekanligi aholisining etnik shakllanishi tarixiga kuchli ta'sir etgan. Bu holatni bir necha bor A. N. Bernshtam ham ta'kidlab o'tgan⁷³. An'anaviy tog' dovonlari yoki "Xo'jand darvozasi" orqali vodiya doimiy ravishda chorvadorlarning kirib kelishi turli elatlarga mansub qabilalardan iborat aholining tarkib topishiga sabab bo'lgan. Ko'chib kelganlar asta-sekin o'troqlashib mahalliy xalq bilan qorishib borgan bo'lsalarda, o'z ota yurtlari bilan aloqalarni uzoq vaqtga qadar saqlab qolishgan. Farg'ona madaniyati tarixida vodiyning janubi-g'arbiy va janub tomonidagi

⁷³ Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М., 1952. – №26. – С. 186–190.

qadimiy dehqonchilik markazlari (keyinchalik, O'rta Osiyo davlatlari) bilan mavjud doimiy aloqalar katta ahamiyat kasb etgan.

Ayniqsa, vodiyning g'arbiy hududlariga kirib kelgan Sirdaryo bo'yi qabilalari bilan tub joy aholisining doimiy aloqalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu uzviy munosabatlar natijasida Farg'ona va Sirdaryo bo'yi xalqlari madaniyatlarida umumiylikni hosil qilgan. Ushbu o'zaro aloqa va munosabatlarning yana bir yo'nalishi Farg'ona dovoni orqali Sharqiy Turkiston va sharqiy Oloy bilan o'rnatilgan. Ushbu munosabatlar Farg'ona qadimiy madaniyatlarining uzoq taraqqiyoti davomida kuzatilgan. Mazkur tadqiqot doirasiga tegishli vodi yodgorliklarining eng qadimiylari bronza davriga oiddir (mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshi). Ma'lumki bu davrda vodiya ikkita madaniyat mavjud bo'lgan: Chust (o'troq ziroatkor)⁷⁴ va Qayroqqum⁷⁵ chorvador nomi bilan fanga kirgan. Mazkur madaniyatlarni dastlab A. N. Bernshtam e'tirof etgan⁷⁶.

Ushbu ikkala madaniyatning kelib chiqishi haqida hanuzgacha munozaralar davom etib kelmoqda. Xususan, mutaxassislar orasida Chust madaniyati shakllanishi bo'yicha ikkita nuqtai-nazar mavjud. Birinchi nuqtai-nazarga ko'ra Chust madaniyati mahalliy ildizga ega va unda bilvosita O'rta Osiyoning janubidagi dehqonchilik madaniyatlari ta'siri sezilib turadi⁷⁷. Shu bilan birga uning sopol idishlari kompleksida Sharqiy Turkiston⁷⁸ va Markaziy Hindiston kulolchiligiga xos elementlar uchraydi. Ikkinchi nuqtai-nazarga ko'ra Chust madaniyati ("Chust madaniy birligi") ko'chmanchi qabilalarning o'troq hayot tarziga o'tishi bilan bog'liq⁷⁹.

Biroq, Yu. A. Zadneprovskiyning ko'rsatishicha, kulolchilikdagi keskin o'zgarish (dasht tipidagi sopoldan bo'yalgan tipiga o'tish)ni izohlash imkoni yo'q. Ehtimol, vodiya dastlab bo'yalgan sopolsozlik madaniyati (bu va Qayroqqum madaniyatlarining kelib chiqishi aniqlanmagan) mavjud bo'lgan. Iqlim sharoitiga ko'ra, Farg'ona vodiysi dehqonchilikka mos, qulay hudud sanaladi, biroq uning rivojlanishi, ehtimol, O'rta Osiyo janubiy mintaqalariga nisbatan sustroq o'tgan, zero bu yerda Anov yoki Sopolli tipidagi madaniyatlar shakllanmagan. Chust madaniyatining shakllanishida, taxminimizcha, janubning ziroatkor qabilalari katta rol o'ynagan bo'lishi kerak, chunki bu aloqalarni mavjud bo'lganligi So'xdan topilgan mil.avv. III–II ming yillikka oid va Elamdan kelib chiqqan qo'sh ilon shaklida ishlangan tosh torozi, Haq va Aflotun xazinalaridan topilgan odamlar

⁷⁴ Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИД. – М., 1962. – №118. – С. 11–49; O'shamuallif: Чустская культура Ферганы, и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – М., 1978.

⁷⁵ Литвинский Б. А., Окладников А. П., Ранов В. А. Древности Кайраккумов (древнейшая история северного Таджикистана). – Душанбе, 1962. – С. 89–287.

⁷⁶ Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М., 1952. – №26. – С. 186.

⁷⁷ Массон В. М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА. – М., 1959. – №73. – С. 114; Литвинский Б. А. Рецензия на книгу Ю. А. Заднепровского «Древнеземледельческая культура Ферганы» // СА. – 1965. – №4. – С. 263.

⁷⁸ Киселев С. В. Неолит и бронзовый век Китая // СА. – 1960. – №4. – С. 252–253.

⁷⁹ Заднепровский Ю. А. Чустская культура... – С. 47–48; Аскарлов А. А. Южный Узбекистан во II тысячелетии до н. э. / Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. – М., 1981. – С. 177–178.

haykalchalari, hamda qadimiy Eronning bo'yalgan sopol idishlari⁸⁰ uslubini eslatadigan Saymalitoshdagi petrogliflar guvohlik beradi.

Shu sababli, qaysidir janubiy qabilalarning vodiya ko'chib kelganligi ehtimoli mantiqdan yiroq emas, chunki Chust madaniyati sohiblarining antropologik tipi o'rta yer dengiziga oid dolixokran tipiga xosdir. Ushbu taxmin bilvosita oxirgi yillarda tadqiq qilinayotgan Zarafshon vohasining Sarazm manzilgohida o'z tasdig'ini topmoqda. Biroq, qo'shni hududlardan qo'lga kiritilgan materiallarning kamligi bu haqda aniq bir to'xtamga kelish imkonini bermayapti. Ayni vaqtning o'zida yettisuv va O'rta Sirdaryo madaniyatlariga mansub dasht qabilalari, balki, oldindan Farg'ona vodiysiga kirib borishgandir. Vodiy o'ziga xos "chegara" hududi bo'lib, unda mahalliy ildizlarga ega turli xo'jalik yuritadigan madaniyatlarning qorishuvi amalga oshgan⁸¹.

Ushbu ikki madaniyatlarning o'zaro ta'sir jarayonlari ular rivojining eng dastlabki bosqichidan so'nggi davrigacha davom etgan. Qayroqqum madaniyatining tadqiqotchisi B. A. Litvinskiy uning o'ziga xos mohiyatini belgilab, unda bronza davriga oid Qozog'iston, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo janubidagi metallsozlar ta'sirini aniqlagan. Ye. Ye. Kuzmina ham Farg'onaning Qirg'iziston va Qozog'iston metallsozlik markazlari bilan bog'liqligini ta'kidlab, Chust madaniyati metall buyumlarini turli metall ishlab chiqarish markazlariga aloqadorligiga qarab uch guruhga bo'ladi.

Bu ikki madaniyatlarning o'zaro ta'siri ularning kulolchilik mahsulotlarida ham seziladi: Toshqo'rg'on, Dashti-asht va Vodil qabrqo'rg'onlarida turli turmush tarziga (ko'chmanchi va zirotkor madaniyatlari) oid sopol idishlarning birga topilishi, hamda ko'chmanchi madaniyatiga xos shaklli idishlarda Chust madaniyatiga oid bo'yoqli naqsh solinganligi aniqlangan. Demak, mil.avv. I ming yillik boshida Farg'ona vodiysida ikki xil madaniyatga ega turli xo'jalik yurituvchi, ehtimol, etnik jihatidan ham turli turkumlariga mansub elatlar istiqomat qilgan. Uzoq davr mobaynida ularning faol o'zaro ta'sirida ilk temir davri madaniyati shakllanadi.

Farg'ona qadimgi madaniyatlarini davrlashtirilishida bu vaqt mil.avv. VI–III asrlar (yangi madaniyatning shakllanishi mil.avv. VIII asr oxiri – VII asrlar) bilan belgilanib, mustaqil Eylaton bosqichi deb nomlandi, zero, Yu.A. Zadneprovskiy tomonidan "Eylaton madaniyati" iborasi ilmiy muomalagakiritilgan⁸². Darhaqiqat, Farg'onaning bu davr madaniyati o'ziga xos bo'lib, o'zidan oldingi va keyingi bosqichlardan butunlay farq qiladi. Uni "Eylaton-Oqtom madaniyati" deb nomlashimiz bu madaniyat mohiyatini, ya'ni ziroatkor va ko'chmanchi madaniyatlarning doimiy o'zaro munosabatlarini aks ettiradi (bu atama dastlab o'rganilgan Eylaton shahri va Oqtom qabrqo'rg'onidan kelib chiqqan)⁸³.

⁸⁰ Бернштам А. Н. Наскальные изображения Саймалы-Таш // СЭ. – 1952. – №2. – С. 56; Шер Я. А. Петроглифы Средней и Центральной Азии. – М., 1980. – С. 206–207.

⁸¹ Гамбург Б. З., Горбунова Н. Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины // СА. – 1957. – №3. – С. 44.

⁸² Заднепровский Ю. А. Городище Эйлатан... – С. 44–45.

⁸³ Оболдуева Т. Г. Раскопки 1960 г. на городище Эйлатан // КСИА. – М., 1962. Вып. 91; O'shamuallif: O datirovke sten Eylatana // СА. – 1981. – №4.

Unga oid yodgorliklarning aksariyati qabrqo'rg'onlardan iborat (Eylaton bundan istisno), ammo bu madaniyatga doir sopol parchalari ayrim manzilgohlarning quyi qatlamlarida ham uchraydi. Madaniyatning umumiy tafsiloti oldin keltirilgan Hozirda Leninobod hududidagi manzilgoh, O'rikzor qabrqo'rg'oni, Dashti-asht, Karkidon Ozgor II yodgorliklaridan olingan materiallarni qo'shishimiz mumkin. Bu mahalliy ziroatkor va chorvador qabilalar madaniyati bo'lgan, biroq dastlabki bosqichda ikkita madaniyat haqida so'z borgan bo'lsa, bunisida esa faqat bitta va uning ichida keyinchalik shakllangan alohida bosqichlarni ajratib o'tish mumkin bo'ladi. Masalan, ilk topilmalar qatoriga jez qozon (mil.avv. VIII asr) 32 va ilk yodgorliklarga Qo'g'ay qabrqo'rg'oni (mil.avv. VI–V asr)⁸⁴ kiradi.

IV–VI asrlarda O'rta Osiyo xalqlari xarakatlarida farg'onaliklar ishtiroki ehtimoldan holi emas. Aytilgan tarixiy jarayonlar va voqeliklarning barchasi Farg'onaning ziroatkor va chorvador madaniyatlarini qorishtirib o'ziga xos madaniyatlarni shakllanishida qo'l kelgan. Bejiz ilk o'rta asrlargacha Farg'ona vodiysida pul muomalasi, tasviriy san'at, haykallar (qo'pol "sanamlardan" tashqari), nodir (melkaya) plastika bo'lmagan. Vodiy madaniyati O'rta Osiyo janubidagi rivojlangan dehqonchilik madaniyatlaridan ko'ra Sirdaryo bo'yi chorvador-ziroatchi madaniyatlariga yaqin bo'lgan. Farg'ona vodiysi uni o'rab turgan chorvadorlar uchun eng yaqin dehqonchilik mintaqasi bo'lganligi sababli, u O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari va uning shimoliy-sharqi, hamda yanada yiroqda joylashgan Qozog'iston, Oltoy va Sibir ko'chmanchilari dunyosi orasida o'ziga xos retranslyator vazifasini bajargan.

Xulosa o'rnida shularni aytish mumkinki, qadimgi Farg'ona vodiysida sug'orma dehqonchilik ilk bor bundan 4500-4000 yillar avvaldan boshlab adirorti mikrovohalarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, miloddan avvalgi 2 ming yillikning 2- yarmida Chust va Dalvarzin kabi ilk shaharlar shakllanadi. Miloddan avvalgi X-IX asrlarda Kosonsoy, Oqbura va Aravonsoyning quyi havzalarida ularning eski irmoqlari o'rnida dastlabki kanallar paydo bo'ladi. Natijada daryo va soylarning delta qismida yuzlab gektar yangi yerlar o'zlashtirilib va yangi shahsrlar paydo bo'lishi bilan yangi- yangi dehqonchilik manzilgohlariga asos solindi.

⁸⁴ Горбунова Н. Г. Могильник Қўғай // АСГЭ. – Л., 1961. Вып. 3; О'shamuallif: Суфанский могильник // АСГ. – Л., 1969. Вып. 11. – С. 89.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorboyev A. Farg'onning qadimgi shahrlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rnini -T: Fan.2002 ,139-b
2. Горбунова Н. Г. Могильник Қўғай // АСГЭ. – Л., 1961.
3. Заднепровский Ю. А. Городище Эйлатан... – С. 44–45.
4. Бернштам А. Н. Наскальные изображения Саймалы-Таш // СЭ. – 1952.
5. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М., 1952. – №26. – С. 186–190.
6. Гамбург Б. З., Горбунова Н. Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины // СА. – 1957
7. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИД. – М., 1962. \
- Литвинский Б. А., Окладников А. П., Ранов В. А. Древности Кайраккумов (древнейшая история северного Таджикистана). – Душанбе, 1962. – С. 89–287.
8. Киселев С. В. Неолит и бронзовый век Китая // СА. – 1960. – №4. – С. 252–253.
9. Заднепровский Ю. А. Чустская культура... – С. 47–48;
10. Аскарлов А. А. Южный Узбекистан во II тысячелетии до н. э. / Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. – М., 1981. – С. 177–178.